



**JADIDLAR ASARLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI
(BOSHLANG‘ICH SINFLAR MISOLIDA)**

Abdullaxo‘jayev Adhamxo‘ja

Qo‘qon universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası

katta o‘qituvchisi

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Telefon: +998 90 362 91 41

E-mail: adhamxojaabdullaxojaev@gmail.com

Mahmudjonova Muharramoy Otabek qizi

Qo‘qon universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi

Telefon: +998 95 927 80 81

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadid adabiy merosining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati keng tahlil qilinadi. Jadidlar — milliy uyg‘onish davri vakillari sifatida nafaqat ta‘lim tizimini isloh qilish, balki yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga alohida e‘tibor qaratganlar. Xususan, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadid mutafakkirlar asarlarida bolalar tarbiyasi, odob-axloq, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlar keng yoritilgan. Maqolada jadidlar tomonidan yaratilgan asarlarning boshlang‘ich ta‘lim jarayonida qo‘llanish imkoniyatlari, ularning o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, milliy qadriyatlarga hurmat, ijtimoiy mas‘uliyat va ma‘naviy immunitetni shakllantirishdagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, jadid asarlarining didaktik va tarbiyaviy jihatlari zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘un holda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadid adabiy merosi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxs sifatida



shakllanishida, ularning dunyoqarashini kengaytirishda hamda milliy o'zlikni anglashida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, jadidlar asarlarini dars jarayoniga keng joriy etish bugungi kun ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar:Jadidchilik, tarbiya, boshlang'ich ta'lim, ma'naviy-axloqiy rivojlanish, milliy qadriyatlar, pedagogika, jadid adabiyoti, o'quvchi shaxsi, vatanparvarlik, didaktika

Annotation:This article provides a comprehensive analysis of the role and significance of Jadid literary heritage as an important educational and moral resource for primary school students. The Jadids, as representatives of the national enlightenment movement, paid special attention not only to reforming the educational system but also to raising a morally mature and intellectually developed younger generation. In particular, the works of prominent Jadid thinkers such as Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, and Munavvarqori Abdurashidxonov emphasize essential virtues including morality, patriotism, diligence, and social responsibility. The article examines the pedagogical potential of Jadid works in primary education, highlighting their effectiveness in developing critical thinking skills, fostering respect for national values, and strengthening students' moral consciousness. Furthermore, the didactic and educational aspects of these works are analyzed in the context of modern pedagogical approaches. The findings of the study demonstrate that Jadid literary heritage plays a crucial role in shaping the personality of primary school students, broadening their worldview, and promoting national identity. Therefore, integrating Jadid works into the primary education curriculum is considered one of the key priorities of contemporary educational reforms.

Key words:Jadidism, education, primary education, moral development, national values, pedagogy, Jadid literature, student personality, patriotism, didactics



Kirish:

Jadidlar harakati O'zbekistonda 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida paydo bo'lgan ijtimoiy va madaniy yangilanishlar jarayonidir. Ularning maqsadi xalqni taraqqiy ettirish, ta'limni yangilash va madaniyatni rivojlantirishdir. Jadidlar asarlari, ayniqsa boshlang'ich sinflar uchun tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan manbalardir. [1] Bugungi kunda ta'lim tizimida barkamol avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichi o'quvchining shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu boistarbiya darslarini mazmunan boyitish, milliy va ma'naviy qadriyatlarga tayangan holda tashkil etish dolzarbmasala sanaladi. Bu borada jadid pedagoglarining boy pedagogik merosi muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Ona Vatanimizni yuksak madaniyat va ma'naviyatga ega bo'lgan, erkin vabaxtli insonlar yashaydigan mamlakatga aylantirish maqsadida "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi va uni amaliyotga tatbiq etish milliy dasturini ishlab chiqish zarurligini o'z ma'ruzalarida ta'kidlab o'tganlar. Ushbu konsepsiyadan kutilayotgan yo'nalish va usullar yoshlarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida kamoltopirish hamda shu orqali jamiyatning madaniy va ma'rifiy yuksalishiga erishish imkonini yaratadi. Shu bilanbirga, jamiyat a'zolarining ongi va tafakkurini, hayot falsafasi hamda dunyoqarashini kengaytirishga xizmatqiladi. Yangi O'zbekiston kelajagi bo'lgan yoshlarni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs qilib tarbiyalash har bir insonning burchi ekanligini unutmashimiz lozim. Jadidchilik harakati vakillari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Ismoil G'aspirali va boshqalar ta'lim va tarbiyani jamiyat taraqqiyotining asosi deb bilganlar. Jadidlar harakati, asosan, turk madaniyatining ta'siri bilan shakllangan. [2] Jadid adabiyoti o'zining sodda, tushunarli va tarbiyaviy ahamiyatga boyligi bilan ajralib turadi. Bu asarlar orqali yosh avlodda vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, bilimga intilish kabi ijobiy fazilatlar shakllantiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun aynan shunday sodda va ta'sirchan mazmundagi asarlar



katta ahamiyatga ega, chunki bu davr bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Jadidlar o‘z asarlarida ta’lim va tarbiya masalasiga alohida e’tibor qaratganlar. Ular maktabni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili deb bilganlar. Shuning uchun ham o‘z asarlarida o‘qishning ahamiyati, ilm olishning zarurligi, ustoz va shogird munosabatlari haqida keng fikr yuritganlar. Bu g‘oyalar bugungi boshlang‘ich ta’lim tizimida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Jadid asarlarining yana bir muhim jihati — ularning axloqiy-tarbiyaviy yo‘nalganligidir. Ularda bolalarni rostgo‘ylikka, mehr-oqibatga, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat bilan munosabatda bo‘lishga o‘rgatuvchi fikrlar keng o‘rin olgan. Bunday tarbiya esa aynan boshlang‘ich sinf davrida samarali shakllanadi. Shu bois jadid asarlari dars jarayonida o‘qish materiallari sifatida, shuningdek, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar uchun ham juda qulay manbadir. Shuningdek, jadidlar asarlarida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarga hurmat ruhida tarbiya berish masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Bu esa yosh avlodda milliy g‘urur va o‘zlikni anglash tuyg‘usini rivojlantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu juda muhim, chunki ular aynan shu davrda o‘z millati va madaniyatiga nisbatan dastlabki tushunchalarni shakllantiradilar. Jadid asarlarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish ham muhimdir. Masalan, rolli o‘yinlar, sahnalashtirish, savol-javoblar orqali o‘quvchilarni faol ishtirok etishga jalb qilish mumkin.[4] Bu esa nafaqat ularning bilimini oshiradi, balki mustaqil fikrlash, nutq madaniyati va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bugungi kunda jadidlar asarlaridan foydalanish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ularni quyidagi usullar orqali samarali qo‘llash mumkin:

Sahnalashtirish — asarlarni rollarga bo‘lib ijro etish;

Munozara — o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;

Interfaol metodlar — savol-javob, klaster, aqliy hujum;

Tarbiya soatlari — axloqiy mavzularda suhbatlar o‘tkazish. Boshlang‘ich sinflarda tarbiya darslarini tashkil etishda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda metodik



yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, 1-sinf uchun mo'ljallangan "Salomlashish odobi" mavzusidagi metodik dars ishlanmasida darsning asosiy maqsadi o'quvchilarga salomlashishning ijtimoiy va axloqiy ahamiyatini tushuntirish, kattalarga hamda tengdoshlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat bo'ladi. Ushbu dars natijasida o'quvchilar salomlashish qoidalarini bilishi va kundalik hayotda ulardan foydalanishi kutiladi. Dars jarayonida suhbat, rol o'ynash va ko'rgazmali metodlardan foydalanilib, rasmlar va kartochkalar asosiy jihoz sifatida qo'llanadi. Darsning borishida avval tashkiliy qismda o'quvchilar bilan samimiy salomlashiladi, so'ngra kirish qismida salomlashish tushunchasi va kimlar bilan salomlashish lozimligi yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. Asosiy qismda o'qituvchi salomlashish haqida qisqa hikoya aytib beradi va "Do'konda", "Maktabda" kabi rolli o'yinlar tashkil etiladi. Mustahkamlash bosqichida rasmlar asosida to'g'ri salomlashish usullari aniqlanadi, yakuniy qismda esa xulosa chiqarilib, o'quvchilar rag'batlantiriladi. 2-sinf uchun ishlab chiqilgan "Do'stlik va mehr-oqibat" mavzusidagi metodik dars ishlanmasi o'quvchilarda do'stlik tushunchasini shakllantirish, mehr-oqibatli bo'lishga o'rgatishga qaratilgan bo'lib, natijada o'quvchilar do'stlik belgilarini anglaydi va jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlanadi. Darsda guruh bilan ishlash munozara va "aqliy hujum" metodlari qo'llanadi, rangli qog'oz va flomasterlar yordamchi vosita sifatida foydalaniladi. Dars jarayonida kirish qismida "Do'st deganda nimani tushunasiz?" savoli muhokama qilinadi, asosiy qismda "Ahmad va uning do'sti" nomli hikoya o'qilib, guruhlar do'stlik qoidalarini shakllantiradi, mustahkamlash bosqichida esa "Yaxshi do'st qanday bo'ladi?" mavzusida klaster tuziladi. [5] Yakunda xulosa chiqarilib, baholash amalga oshiriladi. 3-sinf uchun mo'ljallangan "Oila – muqaddas maskan" mavzusidagi dars ishlanmasi o'quvchilarga oila qadriyatlari haqida tushuncha berish, ota-ona va yaqinlarga hurmat tuyg'usini rivojlantirishga xizmat qiladi. Dars natijasida o'quvchilar oila a'zolarining vazifalarini bilishi va oilaga nisbatan



mas'uliyat hissi kuchayishi kutiladi. Munozara, taqdimot va mustaqil fikrlash metodlari asosida tashkil etilgan darsda slaydlar va oila rasmlaridan foydalaniladi. Dars davomida kirish qismida "Oila siz uchun nimani anglatadi?" savoli muhokama qilinadi, asosiy qismda oila haqidagi maqollar tahlil qilinib, o'quvchilar o'z oilasi haqida qisqa taqdimotlar qiladi, mustahkamlash bosqichida savol-javob o'tkaziladi va yakunda baholash amalga oshiriladi. 4-sinf uchun ishlab chiqilgan "Vatanparvarlik – oliy burch" mavzusidagi metodik dars ishlanmasi o'quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish va fuqarolik mas'uliyatini anglashga yo'naltirilgan. Dars natijasida o'quvchilar vatanparvarlik tushunchasini izohlash va jamiyatda faol bo'lishga intilish ko'nikmalarigaega bo'lishi kutiladi. Munozara, "Insert" metodi va mustaqil ishlar asosida olib boriladigan darsda davlat ramzlariva videoroliklardan foydalaniladi. Darsning kirish qismida davlat madhiyasidan parcha tinglanadi, asosiy qismda Vatan haqidagi matn ustida ishlanib, insert jadvali tuziladi, mustahkamlash bosqichida esa "Men Vatanim uchun nima qila olaman?" mavzusida fikrlar bildiriladi va yakunda xulosa chiqarilib, baholash o'tkaziladi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Jadidlar asarlari boshlang'ich sinflar uchun muhim tarbiyaviy manba bo'lib, ularning ta'limi, tarbiyasi va madaniyati uchun zarur bo'lgan ko'plab g'oyalar mujassam etilgan. O'qituvchilar ushbu asarlarni darslarda samarali qo'llash orqali o'quvchilarni ma'naviy jihatdan boyitishda o'z hissalarini qo'shishlari mumkin. bag'ishlangan bo'lib, unda bolaning shaxsiy kamoloti, odob-axloqi va jamiyatdagi o'rni keng yoritilgan. Turkiy guliston yoxud axloq asarida jami 48 ta xulq-atvor sharhlanadi: 24 tasi ijobiy fazilatlar, qolgan 24 tasi esa salbiy, ya'ni yomon xulqlar haqidagi fikrlardan iborat. Avloniy mazkur sifatlarni teng miqdorda bayon etish orqali olamda yaxshilik va yomonlik muvozanatda bo'lishi, agar ulardan loaqal bittasi ustunlikka ega bo'lsa, muvozanat buzilishini nazarda tutgan. Asarda muallif nasriy bayon bilan birga she'rlar, hikoyalar va pand-nasihatlarini ham keltirgan bo'lib, asar tili sodda, xalqchil va o'quvchiga bevosita, to'g'ridan to'g'ri yetib boradigan tarzda bayon etilgan. Jadidlarning pedagogik ruhdagi o'lmas asarlari



o‘zbek pedagogikasi va ma’rifatparvarlik tarixida muhimo‘rin tutadi. Ular ochgan jadid maktablarida qisqa muddat ichida o‘quvchilar savodli bo‘lib yetishib chiqqanlar. Ushbu g‘oyalar bugungi tarbiya darslari mazmuni bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni dars jarayoniga moslashtirib qo‘llash yuqori samaradorlik beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Abdulla Avloniy.** Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: "O‘qituvchi", 1992 (yoki qayta nashrlari). – [Elektron resurs]. Kirish rejimi: <https://ziyouz.com/kutubxona/abdulla-avloniy-turkiy-guliston-yoxud-axloq>.
2. **Abdurauf Fitrat.** Tanlangan asarlar. 1-5-jildlar. – Toshkent: "Ma’naviyat", 2000-2010. – [Elektron resurs]. Kirish rejimi: <https://ziyouz.com/kutubxona/abdurauf-fitrat-asarlar>.
3. **O‘zbekiston Milliy kutubxonasi** (natlib.uz). Ilmiy va badiiy adabiyotlar bazasi. [Elektron resurs]. Kirish rejimi: <https://natlib.uz>.
4. **O‘zbek** // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi / Wikipedia ma’lumotlari. [Elektron resurs]. Kirish rejimi: <https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbeklar>.
5. **Google Scholar** (Ilmiy ishlar va maqolalar bazasi). [Elektron resurs]. Kirish rejimi: <https://scholar.google.com>.